**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR**
**VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**5110800- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi**

# DASTURI

*2024/2025 o'quv yili*

**Tuzuvchilar:**

| | |
|---|---|
| X.Z.Soliyev | NamDU "San'atshunoslik" kafedrasi dotsenti. |
| D.S.Pulatov | NamDU "San'atshunoslik" kafedrasi s.f.n.dotsent. |
| B.G'.Jabbarov | NamDU "San'atshunoslik" kafedrasi dotsenti. |
| H.I.Rizayev | NamDU "San'atshunoslik" kafedrasi dotsenti. |
| F.SH.Madaminov | NamDU "San'atshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi. |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| O'E.Abdullayev | Namangan Pedagogika instituti professori, |
| B.N.Oripov | Namangan Pedagogika instituti dotsent |
| A.B.Tadjibayev | Namangan Pedagogika instituti PhD v.b.dotsent |

5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sirtqi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Tasviriy va amaliy san'at kafedrasining 2025-yil 24-yanvardagi № 6-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** **X.Z.Soliyev**

5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2025-yil «30» yanvar dagi № 6 -sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

**Kengash kotibi** **A.To'xtaboyev**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 10 sentabrdagi 20-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda Namangan davlat universiteti Kengashining 2020-yil 31-avgustdagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv rejasi**) majburiy fanlar blokidagi majburiy fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda– **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovi universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar bloki tarkibidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar o'quv dasturlari asosida o'tkaziladi.

4. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## II. ATTESTASIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

5. 2024/2025 o'quv yilida 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi –axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test shaklda o'tkaziladi.

6. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o'zgartirilishi mumkin emas.

7. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

8. Attestatsiya sinovi Namangan davlat universiteti bazasida, talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, Attestatsiya sinovi shaklidan kelib chiqib jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

## III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining
- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
- kasbiy faoliyatga;
- umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

### TASVIRIY SAN'AT TARIXI

1. Misr san`atining qadimgi podsholik davri (davrini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
2. Afina Akropoli haqida nimalarni bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, o`ziga xosligi nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
3. Ibtidoiy g'orlar va ulardagi tasvirlar (qaysi davrga xosligi, qanday tarixiy bosqich, tasvirlar tahlili, qaysi san`at turiga mansubligi va tahlili va b)
4. "Disk otuvchi" xaykali haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
5. Megalitik qurilmalar (ta`riflang, tarixiy davrini aniqlang, turlarga ajrating, tahlil qiling, mashhur namunalarni ko`rsating)
6. "Katta sfinks" xaykali haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
7. "Giza piramidalar majmuasi" haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
8. Qadimgi Sharq san`ati mamlakatlari san`ati (umumta`rif, mamlakatlarni aniqlang, o`ziga xos san`at an`analarini izohlang, san`at asarlarini ko`rsating, tahlil qiling)
9. Tosh asri san`ati (ta`riflang, tarixiy davrini aniqlang, bosqichlarga ajrating, tahlil qiling, keyingi san`atdagi ahamiyatini yoriting)
10. Qadimgi dunyo san`ati (umumta`rif, mamlakatlarni aniqlang, o`ziga xos san`at an`analarini izohlang, san`at asarlarini ko`rsating, tahlil qiling)
11. "Naramsin stelasi" haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
12. "Gudea" xaykali haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
13. "Ishtar darvozasi" haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
14. Mis yoki bronza asri san`ati (ta`riflang, tarixiy davrini aniqlang, bosqichlarga ajrating, tahlil qiling, keyingi san`atdagi ahamiyatini yoriting)

**15.** “Shedu” xaykali haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
**16.** “Parfenon” ibodatxonasi” haqida nimani bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
**17.** A.Evansning arxeologik kashfiyoti haqida nima bilasiz (qanday olim, qaysi davr saan`atini o`rganishga hissa qo`shgan, qanday qadimgi shahar qoldiqlarini o`rgangan)
**18.** Kuros obrazlari qaysi davr san`atida kuzatiladi (qanday haykal, g’oyaviy mazmuni nimadan iborat, qaysi mamlakat san`atiga mansub)
**19.** Ibtidoiy jamoa davri tasviriy san`ati (ta`riflang, tarixiy davrini aniqlang, bosqichlarga ajrating, tahlil qiling, keyingi san`atdagi ahamiyatini yoriting)
**20.** Grek orderlari haqida nimalarni bilasiz (order tizimi nima, qanday turlari bor, bir-biridan farqi nimada, o`ziga xosligi qanday, tar`riflang)
**21.** Grek Akropoli haqida nimalarni bilasiz (Akropol nima, qanday xususiyatga ega, tar`riflang)
**22.** Barokko uslubi (shakllangan joyi, yirik vakillari, me`morlik, haykaltaroshlik, rangtasvir)
**23.** San`at tarixini davriylashtirish asoslarini keng yoriting
**24.** Italiyada Uyg’onish davri san`ati
**25.** Mikelanjelo Buanorotti hayoti va ijodi.
**26.** Samarqand tarixiy me`moriy komplekslari.
**27.** Kamoliddin Behzod va O`rta Osiyo miniatyura san`ati.
**28.** O`rol Tansiqboev ijodida manzara janri.
**29.** O`zbekiston xalq rassomi Abdulxaq Abdullaev ijodi.
**30.** Rus rassomlari K.Bryullov ijodi.
**31.** Pavel Petrovich Benkov ijodi
**32.** Leonardo da Vinchi ijodi.
**33.** Abstraksionizm yo`nalishi va uning asosiy xususiyatlari, asarlardagi talqini
**34.** Impressionizm yo`nalishi va uning asosiy xususiyatlari, asarlardagi talqini
**35.** O`rta asrlar Sharq miniatyurasi va uning rivojlanishida K.Behzod ijodining ahamiyati
**36.** Tasviriy san`atda perespektiva qanday ahamiyatga ega?
**37.** 1970-80 yillar O`zbekiston tasviriy san`ati rivoji
**38.** Kuros haykallarining ijodiy uslubi va ilgari surilgan ilg’or g’oyalar tahlili
**39.** O`zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarov ijodi.
**40.** Uyg’onish davri san`atida Djótto di Bondone ijodining ahamiyati
**41.** Yangi tosh asri san`ati (davriy chegarasi, qanday tarixiy bosqich, san`ati, arxeologik topilmalar va b)
**42.** Podsholikkacha bo`lgan davr Misr san`ati (davrini aniqlang, san`atdagi o`ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
**43.** Madlen davri san`ati (davriy chegarasi, qanday tarixiy bosqich, san`ati, arxeologik topilmalar va b)
**44.** Mastaba qanday qurilma (ta`riflang, tarixiy davrini aniqlang, turlarga ajrating, tahlil qiling, keyingi me`morlikdagi ahamiyatini yoriting)
**45.** Ibtidoiy jamoa davri (Bosqichlarga ajrating, davrlashtiring, o`ziga xos tomonlarini ko`rsating, mashhur topilmalarni tahlil qiling)
**46.** Misr san’atining qadimgi podsholik davri (davrini aniqlang, san’atdagi o‘ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
**47.** Afina Akropoli haqida nimalarni bilasiz (davrini aniqlang, muallifini aniqlang, o‘ziga xosligi nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
**48.** Ibtidoiy g‘orlar va ulardagi tasvirlar (qaysi davrga xosligi, qanday tarixiy bosqich, tasvirlar tahlili, qaysi san’at turiga mansubligi va tahlili va b)
**49.** Misr san’atining O‘rta podsholik davri (davrini aniqlang, san’atdagi o‘ziga xoslik nimada, misol keltiring, tahlil qiling)
**50.** 50.Old Osiyo san’ati (umumta’rif, mamlakatlarni aniqlang, o‘ziga xos san’at an’analarini izohlang, san’at asarlarini ko‘rsating, tahlil qiling

## QALAMTASVIR, AKADEMIK QALAMTASVIR ASOSLARI

1. Akademik qalamtasvir asoslari o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr qanday ko‘nikmalaraga ega bo‘lishi kerak?
2. Akademik qalamtasvir asoslari fani mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
3. Qalamtasvirni tasvirlash vositalari nimalardan iborat.
4. Qalamtasvirning nazariy va ilmiy asoslariga qaysi davrda ilmiy asos solingan?
5. Qalamtasvirning ilmiyligiga asos solgan Uyg‘onish davri rassomlaridan kimlarni bilasiz?
6. Akademik qalamtasvir taraqqiyotiga hissa qo‘shgan rus rassomlarini bilasizmi?
7. O‘zbekistonda zamonaviy qalamtasvir maktablariga qachon asos solingan?
8. Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari qanday tashkil qilinadi?
9. Yorug‘-soya qonuniyatlarini bilasizmi?
10. Badiiy ta’lim va uni inson shaxsini kamol topishida tutgan o‘rni.
11. Badiiy ta’lim va uni turlarini bilasizmi?
12. Ixtisoslik fanlari deganda qanday o‘quv predmetlarini tushunasiz.
13. Qadimgi dunyo san'at tarixida tasvirlarning paydo bo‘lishi.
14. Jahon va markaziy osiyo mamlakatlarining tasviriy san'atga oid manbaalari
15. Qalamtasvirda perspektiva qonunini tutgan o‘rni.
16. Konstruktiv qurilish, shakllarni metodik bosqichlarda to‘g‘ri qurish yo‘llari.

17. Odam skeletining anatomik tahlili va uni akademik qalamtasvir asoslarida qo‘llash.
18. Odam plastik anatomiyasining akademik qalamtasvir asoslarida qo‘llanishi.
19. Akademik qalamtasvir ishlashda odam tanasining tuzilishi (dinamik va statik holatlar).
20. Inson qomatini tasvirlashda o‘quv akademik qalamtasvir metodlari.
21. Naturadan kuzatib ishlash jarayonida metodik bosqichlaridan foydalanish.
22. Inson bosh suyagini yuqoridan va yon tomondan tasvirlash metodi.
23. Keksa inson qomatini murakkab holatdagi portretini ishlashning o‘ziga xos jihatlari
24. Milliy libosdagi erkak qomatini ishlash usullari.
25. Milliy libosdagiayol kishiqomatiniishlashning o‘ziga xos jihatlari.
26. Inson qomatini ishlashda xotira va tasavvur asosida ishlashning ahamiyati.
27. Qalamtasvir ishlashda xomaki tasvir va qoralamalarni ahamiyati.
28. Mikalandjeloni akademik qalamtasvir bo‘yicha jahon san’atiga qo‘shgan hissasi.
29. Losenkoni qalamtasvir o‘qitishga qo‘shgan hissasi.
30. Sapojnikov tomonidan qo‘llanilgan uslubning afzallik tomoni.
31. Akademik Raxim Ahmedovni qalamtasvir rivojiga qo‘shgan hissasi.
32. Professor Malik Nabiyev tomonidan ishlangan tarixiy siymolar portretini ishlashga qo‘shgan hissasi.
33. Gips geometrik jismlar qalamtasvirini ishlashdan maqsad nima?
34. Gips rozetkalarni qanday turlari bor?
35. Korinf va ion orderlaridan tashkil topgan kapitellarni ishlash uslublari.
36. Dovud (as) haykalidan nima uchun zamonaviy qalamtasvir o‘qitishda foydalaniladi?
37. Dovid (as) bosh bo‘laklarini grafik tasvirlash uslublari.
38. Qalamtasvirda kesib ishlash usulini qo‘llashning o‘ziga xos afzallik tomoni.
39. “Ekorshe» gips boshi kim tomonidan ishlangan va uni qalamtasvirdagi axamiyati.
40. Parranda va hayvonlarning grafik tasvirini ishlash uslublari.
41. Antik davr haykallari qalamtasvirini ishlash uslublari.
42. Yosh bola portretini ishlashning o‘ziga xos qonuniyatlari.
43. Rortret qalamtasviri ishlash printsiplari.
44. Avtoportretni ishlash uslublari va uni qalamtasvirdagi o‘rni.
45. O‘tirgan holatdagi inson qomati kompozitsiyasini tasvirlashni o‘ziga xos jihati.
46. Inson tanasini turli holatlarda qalamtasviriniishlash qonuniyatlari.
47. Yalang‘och gavda qalamchizgilarini ishlashda plastik anatomiyani ahamiyati.
48. Murakkab holatda turgan yoki yotgan inson tanasi qalamchizgilarini ishlash uslublari.
49. Qalamtasvirda konstruktiv nisbatlarni topishni ahamiyati.
50. Uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort ishlash uslubi.

## TASVIRIY SAN’AT TEXNALOGIYASI VA NUSHA KO’CHIRISH

1. Dastgohli rangtasvir portret yaratish talablari.
2. Odam gavdasini rangtasvirda ishlash yo’llari.
3. Yalong’och gavdadan ranglavha ishlashda qo’yiladigan talablar.
4. Buyuk tasviriy san`at ustalari ijodini o’rganish.
5. Kiyimli ayol gavdasi (rangli fonda).
6. Usta rassom va pedagoglarning rangtasvir bo’yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish.
7. Tasviriy san’atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etgan plakatlarni o’rganish.
8. Natyurmort, portret, manzara kompozitsiyasi. Tabiat qo’ynida chiziqli va havo perspektivasini qo’llagan holda qalamchizgi va ranglavhalar ishlash.
9.Rassomlar ustaxonalari, ko’rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish, hamda ulardan nushalar olish usullari.
10. Konstruktiv anatomik tuzilish asoslarini hisobga olgan holda ayol qiyofachining yuz tuzilishining xarakterli xususiyatlarini e’tiborga olib boshning elkalari bilan tasvirlash (bo’yin va elka muskullari bog’lanishini ifoda etgan xolda).
11. Yalang’och gavdaga qarab turli nuqtalardan tez etyudlar bajarish, inson tana bo’laklarining konstruktiv - anatomik jihatdan tuzilishini o’rganish. Asar namunalari (reproduktsiyala) bilan tanishib, ularni tahlil qilish.
12. Maxsus kompozitsiya bo’yicha chiqarilgan qo’llanma va kitoblar mutolaasi, ranglavhalar, eskizlar bajarish.
13. Tabiat qo’ynida yordamchi ashyolar (ranglavha va chizmalavhalar) to’plash. Aniq tanlab olingan joyda aslidan qarab ranglavhalar ishlash. Mavzuli - voqeaband kompozitsiya ustida bosqichma–bosqich ish olib borish.
14. Taniqli rassomlar (portretchi ijodkorlar) asarlarini ko’rib tahlil qilish, uslublarini o’rganish.
15. Akademik rangtasvir fanining kelib chiqish tarixi.
Qadimgi dunyo tasviriy san’at tarixiga oid tasvirlarning paydo bo’lishi.
16. Yevropa tasviriy san’atiga oid asarlarni o’rganish va taxlil qilish.
17. Osiyo mamlakatlarining tasviriy san’atga oid asarlarni o’rganish va taxlil qilish.
18. O’zbekiston xududida rangtasvir san’atini kelib chiqishi va shakllanishi.
19. Tugatilgan rangtasvir asarini bajarishda g’oya va kompozitsiyaning o’rni va axamiyati (P.P.Rubens “Breda qal’asi”, A.Ivanov “Isoning xalqqa ko’rinishi”, J.Umarbekov “Ongli inson”).

20.Manzara janrida tasviriy san'at asarlarini ishlashning spetsifik xususiyatlari (N.Pussen, X.Rembrandt, I.Shishkin, I.Levitan, P.Ben'kov, U.Tansiqboyev, Ye.Melnikov, R.Axmedov, R.Timurov, R.Choriyev, G'.Abduraxmonov, Ya.Salpinkidi).

21.Tarixiy janrida tasviriy san'at asarlarini ishlashning spetsifik xususiyatlari (E.Delakrua, T.Jeriko, K.Bryullov, M.Nabiyev, A.Aliqulov).

22.Natyurmort janrida tasviriy san'at asarlarini ishlashning spetsifik xususiyatlari (P.Klaas, U.Xeda, M.Karavadjo, P.Konchalovskiy, Yu.Elizarov, A.Volkov,A.Ikromjonov, G'.Abduraxmonov, Ya.Salpinkidi).

23.Portret janrida tasviriy san'at asarlarini ishlashning spetsifik xususiyatlari (Fayum portretlari, Leonardo da Vinchi, A.Volkov, R.Axmedov, R.Santi, Titsian Vechellio, V.Serov, Ya.Salpinkidi).

24.Ko'pfigurali murakkab kompozitsiyaga ega bo'lgan san'at asarlarida inson qomatini tasvirlash texnologiyasi (S.Botticheli, Mikelandjelo Buonarotti, O.Renuar, E.Mane, K.Mone, K.Bryullov, I.Repin, V.Surikov, M.Nabiyev, A.Aliqulov, Ya.Salpinkidi).

25.Tasviriy san`at asarlarida falsafiy obrazli g'oyalarni aks ettirish va talqin qilish (M.Vrubel, P.Pikasso, S.Dali, A.Volkov, A.Nur, B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Mirzayev).

26. Milliy kiyimdagi ayol qiyofasining akademik rangtasviri.
Tus va rang echimini aniqlash, psixologik xarakterni topish.

27. Milliy kiyimdagi erkak qiyofasining akademik rangtasviri.
Tus va rang echimini aniqlash, psixologik xarakterni topish.

28. Bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya bajarish (kasblar yoki tanlangan muxit).

29. Xarakatdagi inson qomatini ragda ifodalash.

30. Plener(ochiq havoda)da taniqli rassom R.Choriyev an'analari asosida portret ishlash.

31. Plener(ochiq havoda)da taniqli rassom R.Axmedov an'analari asosida portret ishlash.

32. Plener(ochiq havoda)da taniqli rassom R.Axmedov an'analari asosida manzara ishlash.

33. Plener(ochiq xavoda)da taniqli rassom P.Benkov an'analari asosida portret ishlash.

34. Plener(ochiq xavoda)da taniqli rassom Z.Kovalevskaya an'analari asosida portret ishlash.

35. Plener (ochiq xavoda)da taniqli rassom Z.Inog'omov an'analari asosida portret ishlash.

36. Rassomlar E.Delakrua, T.Jeriko, K.Bryullov, M.Nabiyev, A.Aliqulovlar ijodiy asarlari asosida kompozitsiya ishlash.

37. Rassomlar P.Klaas, U.Xeda, M.Karavadjo, P.Konchalovskiy, Yu.Elizarov, A.Volkov, A.Ikromjonov, G'.Abduraxmonov, Ya.Salpinkidilar ijodiy asarlari asosida kompozitsiya ishlash.

38. Rassomlar Leonardo da Vinchi, A.Volkov, R.Axmedov, R.Santi, Titsian Vechellio, V.Serov, Ya.Salpinkidilar ijodiy asarlari asosida kompozitsiya ishlash.

39. Rassomlar S.Bottichelli, Mikelandjelo Buonarotti, O.Renuar, E.Mane, K.Mone Ya.Salpinkidi ijodiy asarlari asosida kompozitsiya ishlash.

40. Rassomlar S.Bottichelli, K.Bryullov, I.Repin, V.Surikov, M.Nabiyev, A.Aliqulov, Ya.Salpinkidi ijodiy asarlari asosida kompozitsiya ishlash.

41. Rassomlar M.Vrubel', P.Pikasso, S.Dali, A.Volkov, A.Nur, B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Mirzaev ijodiy asarlari asosida kompozitsiya ishlash.

42. Musavvir asarlarini taxlil qilish va sharxlash.

43. Dastgohli rangtasvir asarlarini ishlashda moybo'yoq texnologiyasi.

44. Dastgohli rangtasvirda ashyolar.

45. Ochiq havoda rangtasvir asarlarini ishlashda joy tanlashning o'ziga xosligi.

46. Yorug'likni prizma yordamida ko`p rangli ekanligini isbotlagan olim?

47. Janr nima?

48. Lenardo da Vinchining "Monna Liza" portretida qanday ranglardan foydalanilgan?

49. Rangni qarama-qarshiligi –bu:

50. Rangtasvirda rang-baranglikni kuchaytirish deganda nimalar tushuniladi?

60. Tasviriy san`at janrlari qaysi qatorda ko`rsatilgan?

61. Stilizatsiya so`zining ma`nosi nima?

62. Kontrast ranglar deb nimaga aytiladi?

63. Tasvirda narsa va predmetlarning mazmun tashkil qilib, tartibli joylashuvi nima deyiladi?

64. Akvarelda qog'oz yuzasiga rang berish qay yo`sinda olib boriladi?

65. Akvarelda etyud bajarish qaysi tartibda olib boriladi?

66. Qizil rangni ramziy belgisi qaysi qatorda to`g'ri berilagn?

67. Bo`yoqning aralashuvidan hosil bo`ladigan omuxta ranglar?

68. O`quv etyudlariga asosan qanday talablar qo`yiladi?

69. Kompozitsiya nima?

70. Har- bir buyumga yaxlit va uzviy qaramoq

71. Dastgohli rangtasvir qaysi javobda to`g'ri ko`rsatilgan?

72. «Lessirovka» deganda nimani tushunasiz?

73. Rangtasvir ishlashda o`quv natyurmorti qanday tuziladi?

74. Diptix nima?
75. Muzey bu?
76. Mo`yqalam nima?
77. «Grizayl'» Inter'er, ekster'er qalamtasvir sohasiga kiradimi yoki rangtasvirgami?
78. Perspektiva turlari qaysi javobda to`g'ri ko`rsatilgan?
79. "Afrosiyob" devoriy rasm qaysi asrlarda ishlangan?
80. Rangtasvir va kompozitsiyaga monand bo`lgan iboralar qatorini belgilang?
81. Akvarel' bo`yog'i qurigach, ochlashadimi yoki to`qlashadimi?
82. Suvda erimaydigan bo`yoqni belgilang?
83. "Amir Temur" portretini yaratgan musavvir kim?
84. Tus qanday ma`noni anglatadi?
85. Tasviriy san'at ta'limining maqsadi nima?
86. Etyud nima?
87. Yashil rang qaysi bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo`ladi?
88. Hosila ranglar qaysi qatorda to`g'ri berilgan?
89. Sovuq ranglar qaysi javobda to`g'ri ko`rsatilgan ?
90. Axromatik ranglar qaysi qatorda?

## CHIZMACHILIK

1. Silindrik tishli ilashmalarning boshlang'ich aylanalari qanday ko'rinishda chiziladi?
2. Buyumning yig'ish chizmasidagi standart (original) va standartmas detallar qanday aniqlanadi?
3. Aylana qanday egri chiziq?
4. Buyumda birga ishlatiladigan bir nechta detallar qirqish yo'li bilan tayyorlanadigan bo'lsa, ularning ishchi chizmalari nechta tayyorlanadi?
5. Chizmada o'lchamlar bitta chiziqda ketma-ket qo'yilsa, o'lcham qo'yishning.
6. Buyum va uning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishi to'g'risida tasavvur etish imkonini beruvchi tasvir nima deyiladi
7. Sferik sirtga tekislik nima bo'yicha urinadi?
8. Oddiy qirqimda nechta kesuvchi tekislikdan foydalaniladi?
9. 7-shriftning yozma harflari balandligi nechaga teng?
10. Qanday birikma shlitsali brikma deyiladi?
11. Metrik rezba qayerlarda ishlatiladi?
12. Rezbaning ichki diametri qaysi formulaga asosan aniqlanadi?
13. Metrik rezbaning profili qanday shaklda bo'ladi?
14. Truba silindrik rezbalari qayerlarda ishlatiladi?
15. Rezbaning qadami deb nimaga aytiladi?
16. Doiraviy konus sirtining yoyilmasi qanday shaklda bo'ladi?
17. Muntazam oltiyoqlik nima deyiladi?
18. Mahalliy qirqim deb nimaga aytiladi?
19. Detalning bir bo'lagini sindirib tasvirlashga qanday qirqim deyiladi?
20. Murakkab qirqimda nechta kesuvchi tekislikdan foydalanish noto'g'ri bo'ladi?
21. Standartda qaysi chizma shrifti belgilanmagan?
22. Qanday holatda masshtab soni oldiga M harfi qo'yilmaydi?
23. Tasvirlashda nechta asosiy ko'rinish mavjud?
24. «Ko'rinish» nima?
25. Silindr sirtiga tekislik qanday chiziq bo'yicha urinadi?
26. Davlat standartiga asosan A3 formatning o'lchamini ayting.
27. Qachon detal chizmasi uzib tasvirlanadi?
28. Buyumning ustdan ko'rinishi qaysi proyeksiyalar tekisligida tasvirlanadi?
29. 25% berilgan konuslikni ikki son nisbati ko'rinishida ifodalang.
30. 20% berilgan konuslikni ikki son nisbati ko'rinishida qanday bo'ladi?
31. 1:5 nisbatda berilgan konuslikni foizda nechiga teng bo'ladi?
32. Eskiz bajarishda qanday o'lchamlar qo'yiladi?
33. Qaysi masshtab turi haqiqiy kattalik hisoblanadi?
34. Standartda belgilangan shrift turlarini belgilang?
35. Vintlar vositasida mustaxkamlangan shponkalar nima deyiladi?
36. Rz qanday ko'rsatgich?
37. Buyumning spetsifikatsiyasi deb nimaga aytiladi?
38. Detal yuzasining bir qismiga qoplama qoplanadigan bo'lsa, bu yuzalar konturlari qanday belgilanadi?
39. Ko'pyoqlik yoqlarining o'zaro kesishuvchi chizig'i nima deyiladi?
40. Detalning bosh ko'rinishi qaysi proyeksiyalar tekisligida tasvirlanadi?
41. Detalning qaysi ko'rinishi asosiy (bosh) ko'rinish deyiladi?
42. Detalning qaysi ko'rinishi qo'shimcha ko'rinish deyiladi?
43. Sferaning eng katta paralleli nima deb ataladi?
44. To'g'ri doiraviy silindr yon sirti yoyilmasinng uzunligi qaysi ifoda bilan aniqlanadi?
45. Detalning bosh ko'rinishi qanday tanlanadi?
46. Yumshoq qalamlar qanday harflar bilan belgilanadi?
47. Chizmalarda kesim va qirqim qo'llashning maqsadi.
48. "Proyeksiya" so'zi nimani anglatadi?
49. Davlat standartiga asosan A4 formatning o'lchamini ayting.
50. Buyumlarning yoqqolligini va uni tez tasavvur qilishda nimadan foydalaniladi?
51. "Aksonometriya" so'zining lug'aviy ma'nosini toping?
52. Bilim deb nimaga aytiladi?
53. Detal deb nimaga aytiladi?

54. Dyuymli rezbalarda bir dyuym necha mm ga teng?
55. Birikmalarda parchin mixlarning faqat joylashishini ko'rsatish zarur bo'lsa, parchin mixlarning kallagi o'rnida qanday belgi qo'yiladi?

## KOMPOZITSIYA, DASTGOHLI AKADEMIK RANGTASVIR VA KONPOZITSIYASI

1. Taniqli rus manzarachi rassomlari qaysi qatorda ?
2. Impressionizm oqimi qanday oqim ?
3. Portret janrida ijod etgan rassomlar qaysi qatorda?
4. Kubizm oqimi qanday oqim ?
5. Interer nima ?
6. Abu Rayxon Beruniy portretining muallifi kim ?
7. Sangina, pastel, sous kabi badiiy materiallar tasviriy san'atning qaysi turida qo'llaniladi ?
8. Naturaga qarab tasvirlashni qanday tushunasiz ?
9. Illyustratsiya nima ?
10. Kitob grafikasida ijod qilgan rassomlar qaysi qatorda ?
11. David haykalining muallifi kim ?
12. Mashhur musavvir Kamoliddin Behzodning ustozi kim ?
13. Amerikadagi "Ozodlik haykali" ning muallifi kim ?
14. YOrug'-soya qonunlariga oid iboralar qaysi qatorda ?
15. "Toj mahal" me'morchilik obidasi qaysi shaharda ?
16. Etyud iborasining ta'rifi qaysi qatorda ?
17. "Ozodlik haykali"ning balandligi qancha ?
18. Assimetriya iborasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan ?
19. Ufq chizig'i deganda nimani tushunasiz ?
20. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi muallifi kim ?
21. Diptix nima ?
22. Surat tekisligi deb nimaga aytiladi ?
23. Buyum tekisligi deb nimaga aytiladi ?
24. Xusayn Boyqaro portreti kim tomonidan yaratilgan ?
25. Kontur nima ?
26. Blik deb nimaga aytiladi ?
27. Garmoniya iborasi nimani bildiradi ?
28. Jahonga mashhur Luvr muzeyi qaysi mamlakatda joylashgan ?
29. Romantizm oqimi qanday oqim ?
30. Nizomiy nomidagi TDPU maydonidagi Nizomiy haykalning muallifi kim?
31. CHizmatasvirning qanday turlari bor?
32. CHizmatasvir ishlash metodlari maktabini yaratgan olim, rassomlar
33. CHizmatasvirda qanday ashyolar ishlatiladi?
34. "Perspektiva" so'zining ma'nosi?
35. Kartina tekisligi nima?
36. Ko'rish nuqtasi nima?
37. Perspektivada kesishish nuqtalari qanday bo'ladi?
38. CHizmatasvirda tayanch nuqtalari qanday vazifani bajaradi?
39. CHizmatasvirda tasvirlashning qanday asosiy turlari mavjud?
40. CHizmatasvirda soyalar necha xil va qanday?
41. SHaxsiy soya deb nimaga aytiladi?
42. Tushuvchi soya deb nimaga aytiladi?
43. Tasvirlashda oldin qanday vazifa bajariladi?
44. O'zbek milliy xalq amaliy san'at namunalari asosida yaratilgan qanday gips rozetkalar nomlarini bilasiz?
45. Burun tasvirlashda qanday geometrik shakl asos qilib olinadi?
46. Gipsdan yasalgan antik haykal namunalar nomi
47. Tasvirlashning dastlabki bosqichlarida qanday jarayon amalga oshiriladi?
48. Tasvirlashning dastlabki bosqichlarida qanday jarayon amalga oshiriladi?
49. Tasvirning yakuniy jarayonida qanday ish amalga oshiriladi?
50. Anatomik haykallarning tasviri qanday boshlanadi?
51. Tezlavhaning ma'nosi nimani bildiradi?
52. Retush nima?
53. Tus degani …
54. Rasm tasvirlashda kanday ashyolar qo'llaniladi?
55. Ekster'er tushunchasi.

## IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholashda 5 baholik tizim qo'llaniladi.

13. Talabaning Attestatsiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi: 86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 ("a'lo");
71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 ("yaxshi");
55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 ("qoniqarli");
54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 ("qoniqarsiz").

14. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.
Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o'zaro mutanosib taqsimotda bo'lishi lozim.
Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to'g'ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:
86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 ("a'lo");
71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 ("yaxshi");
55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 ("qoniqarli");
54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 ("qoniqarsiz").
Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.
Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

15. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovilari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyatsiya berishi mumkin.

Talabaning apellyatsiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

## V. ATTESTATSIYA SINOVI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA QO'SHIMA USLUBIY KO'RSATMALAR

16. Dasturni o'zlashtirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:


1. Abdullayev N.U. "San'at tarixi" T-2/1. Toshkent, O'qituvchi 2001.
2. Oydinov N. "O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar", Toshkent. O'qituvchi 1997.
3. Abdullaev N.U. "San'at tarixi" elektron o'quv qo'llanma 2005.
4. Oydinov. N.Ajdodlarimiz san'ati va e'tiqodi. Toshkent." O'qituvchi" 1992 y.
5.O'zbekiston san'ati. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati. 2001 y.
6. Baymetov B. "Potret qalamtasviri". T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2001
7. Baymetov B "Qalamtasvir". Darslik. T., Musiqa nashriyoti, 2006.
8. Boymetov B. "Qalamtasvir asoslari". O'quv qo'llanma. TDPU.Toshkent, 1999.
9. Jabbarov B.Akademik qalamtasvir asoslari Darslik.Innavatsiya – Ziyo,2022
10.Tojiev B. "Qalamtasvir asoslarini o'rganish".TDPU. T., 1994.
11.Tojiev B. "Qalamtasvir 3-qism".TDPU. T., 2003.
12.G.M.Abdurahmonov "Kompozitsiya asoslari". T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.
13.B.Baymetov, M.Tolipov "Plastik anatomiya" T., Ilm ziyo nashriyoti, 2005.
14.Baymetov B. "Plastik anatomiya" Amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2011.
15.Murodov SH.K. Tashimov N.E Grafik tasvirlash asoslari. Toshkevt "Navro`z" 2013.
16.Qulnazarov B.B Chizma geometriy Toshkent, "O`zbekiston" 2006.
17.Rixsiboyev Muhandislik kompyuter grafikasi O`quv qo`llanma Toshkent "Tafakkur qanoti" 2006.
18.Yodgorov J va boshqalar Chizmachilik Toshkent 1992.
19.Rahmonov I.T. Chizmachilikdan test Toshkent "O`qituvchi" 1994.
Abdirasilov S.,Tolipov N. "Rangtasvir" SHARQ , Toshkent , 2005.
20.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. "Rangtasvir". T.O'zbekiston , 2006.
21.Abdurahmonov G.M. "Rangtasvir va kompozitsiya".- Toshkent, «O'qituvchi»1995.
22. X.Soliyev " Rangtasvir " Oquv qo'llanma Toshkent 2023
23.Raxmetov. S " Dastgohli rangtasvirda kompozitsiya asoslari ", Toshken, Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati,2007.
24.A.Amanullayev "Akademik rangtasvir " Darslik Toshkeht 2023
25.Sultanov X. "Rangtasvir". (manzara ishlash)metodik qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU Toshkent,2014.
26. Abdirasilov S. "Tasviriy san`at va uni o`qitish metodikasi". O`quv qo`llanma. Toshkent. Ilm-Ziyo, 2011.
27.Abdirasilov S., Tolipov N. "Tasviriy san`at o`qitish metodikasi". (amaliy mashg'ulotlar). O`quv qo`llanma. - T.: «Aloqachi», 2007.
28.Abdirasilov S. "Tasviriy san`at o`qitish metodikasi". Darslik. — T.: «Fan va texnologiya nashriyoti», 2012
29.Abdirasilov S., Boymetov B.. Tolipov N. "Tasviriy san`at". - T.: Ilm-Ziyo, 2006.
30.Abdirasilov S., Tolipov N. "Rangtasvir". -T.: Bilim, 2005.
31.Nurtaev U. "Rangshunoslik asoslari": - T.: Ilm Ziyo. 2008
32.Абдуллаев .Ў Рангтасвирда натурморт –т Ўқув қўлланма " Фан техналогия ".2014
33. Ҳасанов. Р. Тасвирий санъатни ўқитиш методикасидан амалий машғулотлар. Ўқув қўлланма.- Т. " Format – Poligraft ",2006

## VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

17. Dasturda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

18. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

19. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.